

MILLIY QADRIYATLARNI MUSTAHKAMLASHDA RAQAMLI VA MEDIA MUHIT TA'SIRI

Abdusamatov Ozodbek Olimjon o'g'li,

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli media makonida milliy qadriyatlar va zamonaviylik o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, ular orasidagi uyg'unlikning kommunikativ va ijtimoiy-ma'naviy asoslari tahlil qilinadi. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, oila qadriyatlari, tarixiy-madaniy meros, milliy liboslar, taomlar va diniy-ma'naviy an'analar kontentlarning asosiy qismini tashkil etadi. Mazkur qadriyatlar raqamli axborot vositalarida estetik jihatdan jozibador, interaktiv va qisqa formatlarda yoritilib, yosh auditoriyaga moslashtirilgan. Tadqiqotda bu holatlarning milliy o'zlikni saqlash va uni yangi kommunikatsion muhitda ifodalashdagi ahamiyati yoritiladi. Mualliflar raqamli madaniyatda milliy qadriyatlarni targ'ib qilish bo'yicha nazariy xulosalar bilan birga amaliy tavsiyalarni ham ilgari suradi.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyatlar, raqamli media, zamonaviylik, kontent tahlili, madaniy meros, ijtimoiy tarmoqlar.

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь между национальными ценностями и современностью в цифровом медиапространстве, а также коммуникативные и социально-духовные основы их гармонии. Согласно статистическим данным, семейные ценности, историко-культурное наследие, национальная одежда, кухня и религиозно-духовные традиции составляют основную часть контента. Эти ценности освещаются в цифровых СМИ в эстетически привлекательных, интерактивных и кратких форматах, адаптированных для молодежной аудитории. В исследовании раскрывается значение этих процессов в сохранении национальной идентичности и ее выражении в новой коммуникационной среде. Авторы выдвигают теоретические выводы и практические рекомендации по продвижению национальных ценностей в цифровой культуре.

Ключевые слова: национальные ценности, цифровые медиа, современность, контент-анализ, культурное наследие, социальные сети.

Annotation. This article analyzes the interrelationship between national values and modernity in the digital media space, as well as the communicative and socio-spiritual foundations of their harmony. According to statistical data, family values, historical and cultural heritage, national costumes, cuisine, and religious-spiritual traditions constitute the main part of the content. These values are presented in digital media in aesthetically attractive, interactive, and short formats adapted to the young audience. The research highlights the significance of these cases in preserving national identity and expressing it within the new communication environment. Along with theoretical conclusions, the authors put forward practical recommendations for promoting national values in digital culture.

Keywords: national values, digital media, modernity, content analysis, cultural heritage, social networks.

Kirish. XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi insoniyat hayotining barcha sohalariga, xususan, axborot olish, tafakkur qilish va dunyoqarash shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday o'zgarishlar zamonaviylik, ochiqlik va globallashuv kabi tamoyillarni ilgari surib, turli xalqlarning an'anaviy qadriyatlariga ham muayyan darajada ta'sir qilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, raqamli media vositalarining (ijtimoiy tarmoqlar, internet nashrlari, bloglar va platformalar) milliy o'zlik va qadriyatlar tizimi bilan qanday uyg'unlashishi masalasi

dolzarb ilmiyamaliy muammodir. Ayniqsa, yoshlar orasida raqamli kommunikatsiya vositalarining asosiy axborot manbaiga aylangani fonida bu masalaning o'zni yanada ortib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. Milliy qadriyatlar va raqamli media o'rtasidagi bog'liqlik masalasi so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. A. Abduraxmonova (2021) yangi media sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish masalalarini tahlil qilgan. Muallifning fikricha, raqamli platformalar milliy madaniyatni targ'ib qilish uchun samarali vosita hisoblanadi.

M. Beknazarov (2022) raqamli madaniyatning yoshlar ongiga ta'sirini o'rganib, ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy o'zlikni shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Q. Hamraev (2020) esa axborotlashgan jamiyat sharoitida milliy identitetning nazariy asoslarini yoritib, globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni asrash muhimligini qayd etadi.

Shuningdek, A. Mamarasulov (2023) yangi media va milliy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib, ularning hamkorlik asosida rivojlanishi jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarda raqamli media milliy qadriyatlarni targ'ib qilish, yoshlar ongida milliy o'zlikni shakllantirish va madaniy merosni saqlashning muhim vositasi sifatida baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda milliy qadriyatlar va raqamli media muhitining o'zaro bog'liqligini o'rganish uchun nazariy va amaliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot davomida tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, kontent tahlili hamda kuzatuv metodlari qo'llanildi. Ma'lumotlar manbai sifatida ilmiy adabiyotlar, ijtimoiy tarmoqlardagi ochiq kontentlar va raqamli media platformalaridagi materiallardan foydalanildi.

Shuningdek, Telegram, Instagram va YouTube platformalaridagi milliy qadriyatlarga oid sahifalar o'rganilib, ularning yoshlar ongiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari milliy qadriyatlarning zamonaviy raqamli muhitda targ'ib qilinishi va yoshlar tomonidan qabul qilinish darajasini aniqlashga xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli media vositalari orqali milliy qadriyatlar va zamonaviylik o'rtasidagi uyg'unlikni aniqlash, uning ijtimoiy ong va madaniyat rivojiga ta'sirini baholashdan iborat. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi: raqamli media muhiti va milliy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tahlil qilish; zamonaviylik va milliylik qarama-qarshiligi emas, balki uyg'unligi tamoyillarini asoslash; ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlar targ'iboti bo'yicha mavjud amaliyotlarni o'rganish; xorijiy tajribalar (masalan, Janubiy Koreya va Turkiya) asosida zamonaviy milliy identifikatsiyaning raqamli shakllarini solishtirish. Tadqiqot obyekti sifatida raqamli media vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, media platformalar), predmeti sifatida esa ushbu vositalarda milliy qadriyatlarning aks etishi va yoshlar ongiga ta'siri belgilandi. Ushbu mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlarda raqamli

media va milliy identitet o'zaro bog'liqligi alohida o'rganilgan bo'lsa-da (A.Appadurai, M.Castells, J.Habermas), O'zbekistonsharoitida raqamli muhitda milliy qadriyatlar taqdimoti va ularning zamonaviylik bilan uyg'unlashuvi masalasi yetarli darajada tahlil qilinmagan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda milliy qadriyatlar va zamonaviy raqamli madaniyatning integratsiyalashuvi sinergetik va falsafiy-nazariy asosda yoritiladi. Shuningdek, o'zbek ijtimoiy tarmoqlaridagi real kontentlar misolida zamonaviy milliylik modeli ilgari suriladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa raqamli madaniyat siyosatini shakllantirishda, blogerlar, media mutaxassisleri va ta'lim tizimi vakillari uchun foydali yo'nalishlar taklif etilishidadir. Ushbu tadqiqot quyidagi gipotezaga tayanadi: agar raqamli media vositalarida milliy qadriyatlar zamonaviy uslubda, yoshlar dunyoqarashiga mos formatda taqdim etilsa, u holda ularning ijtimoiy ongda barqaror mustahkamlanishi va global maydonda ham raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

Ushbu tadqiqot tabiati jihatidan nazariy-amaliy xarakterga ega bo'lib, unda raqamli media vositalari orqali milliy qadriyatlar va zamonaviylik uyg'unligi masalasi falsafiy, madaniy va kommunikativ nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqotda ilmiy-empirik yondashuv bilan bir qatorda nazariy tahlil usuli ham keng qo'llanildi. Asosiy ma'lumot manbalari sifatida milliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlanmalari, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan ochiq kontentlar (Telegram, Instagram, YouTube platformalaridagi milliylik va zamonaviylik mavzusiga oid sahifalar), shuningdek, O'zbekiston Milliy kutubxonasi fondidagi ilmiy-nazariy adabiyotlar hamda ommaviy axborot vositalarida chop etilgan maqolalardan foydalanildi. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar qatoriga tahlil (analiz) va umumlashtirish (sintez), tarixiy yondashuv, kontent tahlili, qiyosiy tahlil, empirik kuzatuv va suhbatiy metodlar kiradi. Kontent tahlili yordamida ijtimoiy tarmoqlardagi turli sahifalarda milliy qadriyatlar qanday talqin qilinayotgani, qanday estetik shakllarda ifodalanayotgani o'rganildi. Qiyosiy tahlil metodidan foydalangan holda Janubiy Koreya va Turkiya kabi davlatlardagi raqamli milliy identitet siyosati O'zbekiston tajribasi bilan solishtirildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida raqamli media muhiti (ijtimoiy tarmoqlar va raqamli axborot platformalari) belgilangan bo'lsa, sub'ekti sifatida O'zbekiston hududida faoliyat yurituvchi yosh blogerlar, milliy madaniyat faollari va raqamli axborot iste'molchilari (yoshlar) tanlab olindi. Tadqiqot 2024 yilning sentabr–dekabr oylarida Nukus shahri va bir qancha tumanlarda olib borilgan kuzatuvlar, so'rovlar va ijtimoiy tarmoq monitoringi asosida amalga oshirildi. Aholining turli yosh guruhlari, xususan, 18–30 yosh oralig'idagi foydalanuvchilar orasida raqamli media vositalari orqali milliy qadriyatlarni qanday qabul qilishlari, ularni zamonaviylik bilan qanday uyg'unlashtirishlari o'rganildi.

Tadqiqot shart-sharoitlari ijtimoiy tarmoqlar ochiqligi, raqamli axborot oqimining kengligi va turli fikrlar pluralizmi asosida shakllandi. Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yurituvchi 50 ta milliy yo'nalishdagi blog va media sahifalarning 38 tasida milliy qadriyatlar zamonaviy vizual va mazmuniy formatlarda taqdim etilayotgani aniqlandi. Ushbu sahifalarda milliy liboslar, urf-odatlar, tarixiy

shaxslar, xalq amaliy san'ati va o'zbekona hayot tarzi muntazam yoritilmoqda. O'rganilgan 300 ta kontent namunalarining 187 tasida (62,3%) milliylik ifodasi mavjud bo'lib, ularning aksariyatida zamonaviy uslub va estetika bilan uyg'unlashtirishga intilish kuzatildi. 2024 yilning sentabr–dekabr oylarida Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va yana uchta viloyatda o'tkazilgan onlayn va oflayn so'rovnomalarda jami 624 nafar respondent ishtirok etdi. Ularning 412 nafari (66%) raqamli media orqali milliy qadriyatlar haqida ma'lumot olayotganini bildirgan bo'lsa, 278 nafari (45%) bunday kontentlar zamonaviy formatda taqdim etilsa, ularga nisbatan qiziqish sezilarli darajada oshishini qayd etdi. 71 nafar respondent (11,4%) ijtimoiy tarmoqlarda milliylik va zamonaviylik uyg'unligiga oid materiallar yetarli emasligini bildirgan. Qoraqalpog'iston Respublikasida olib borilgan kuzatuvlar davomida aniqlanishicha, Nukus shahri va uning atrofidagi 18–30 yoshdagi foydalanuvchilar orasida Telegram, Instagram va YouTube kabi platformalarda milliy qadriyatlar aks etgan kontentlarni kuzatish faolligi yuqori bo'lib, 73 nafar respondentning 51 nafari (69,8%) bunday materiallarni muntazam kuzatib borishini bildirgan. Kontent tahlili asosida aniqlanishicha, 2022–2024 yillar davomida milliy qadriyatlarni raqamli formatda targ'ib qiluvchi sahifalar soni 1,8 barobarga oshgan. Telegram tarmog'ida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarix va ma'naviyatga oid mavzularga ixtisoslashgan 20 dan ortiq kanal faoliyat yuritmoqda, ularning umumiy obunachilar soni 1 milliondan ortgan. Kontentlar tematikasi tahlil qilinganda quyidagi nisbatlar kuzatildi: 42% holatlarda oila qadriyatlari, 28% da tarixiy-madaniy meros, 19% da milliy taomlar va kiyimlar, 11% da diniy-ma'naviy an'analar yoritilgan. Shuningdek, ayrim sahifalarda milliy qadriyatlar global estetikaga mos vizual yechimlar asosida berilayotgani kuzatildi, bu esa auditoriya bilan interaktiv aloqani kuchaytirishga xizmat qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli media vositalari orqali milliy qadriyatlar zamonaviy estetik shakllar va kommunikatsion uslublar bilan uyg'unlashtirilmoqda.

Kontentlarning asosiy qismi (42%) oila qadriyatlariga bag'ishlangani bu yo'nalish aholining kundalik hayotida eng dolzarb bo'lgan qadriyatlar toifasiga kirishini anglatadi. Tarixiy-madaniy meros, milliy kiyimlar va taomlar, diniy ma'naviy an'analar kabi yo'nalishlar esa keng ijtimoiy qatlamlar o'rtasida milliy o'zlikni tiklash va mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu esa raqamli axborot vositalarining nafaqat ma'lumot uzatuvchi, balki ma'naviy tarbiya beruvchi vosita sifatidagi rolini ko'rsatadi. Natijalar oldingi tadqiqotlar bilan qiyoslanganda, masalan, A. Abdurahmonova (2021) va M. Beknazarov (2022)larning raqamli milliy identitet haqidagi ishlari bilan uyg'unlikda ekanini ko'rsatdi. Ular ham raqamli media milliy madaniyatni yangi avlodlarga singdirishda kuchli vosita bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan edi. Ammo bizning tadqiqotda ilk bor Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida mintaqaviy kontentlar tahlil qilinib, bu hududda ham raqamli milliylik shakllanayotganini ko'rsatish imkoniyati yaratildi. Tadqiqot avvalgi gipotezani – ya'ni raqamli media vositalari orqali milliy qadriyatlar zamonaviy shakllarda muvaffaqiyatli targ'ib etilmoqda degan taxminni

tasdiqladi. Ayniqsa, yoshlar orasida bunday kontentlarga qiziqish yuqori ekani statistik ma'lumotlar orqali isbotlandi.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud. Jumladan, kontent tahlili faqat 2024 yilning sentabr–dekabr oylarini qamrab oldi, ayrim platformalarning yopiq yoki shaxsiy xarakterga ega bo'lishi esa ba'zi tahlillarning to'liqligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, empirik tadqiqotlar asosan yirik shaharlarda olib borildi, bu esa chekka hududlardagi foydalanuvchilarning raqamli madaniy xatti-harakatlarini to'liq aks ettirmasligi mumkin. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, u raqamli media orqali milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish jarayonining falsafiy va kommunikativ asoslarini ko'rsatib berdi. Amaliy nuqtai nazardan esa bu natijalar raqamli kontent ishlab chiqaruvchilar, blogerlar, ma'naviy-ma'rifiy soha mutaxassislari va pedagoglar uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb bo'lib qolmoqda: raqamli platformalarning algoritmik siyosatlari milliy qadriyatlarni targ'ib etishga qanday ta'sir qilmoqda; yoshlar orasida raqamli qadriyatlar shakllanishi; shuningdek, chekka hududlardagi foydalanuvchilarning raqamli identiteti va unga milliylikning ta'siri. Shu bilan birga, kontent yaratishda sun'iy intellekt vositalarining milliy madaniyatga nisbatan pozitsiyasi ham o'rganilishi lozim bo'lgan yangi yo'nalishlardan biridir. Xulosa. Raqamli media vositalarining jadal rivojlanishi milliy qadriyatlarning yangi kommunikatsion muhitda qayta talqin qilinishini taqozo qilmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, zamonaviy texnologiyalar vositasida milliy qadriyatlar nafaqat saqlab qolinmoqda, balki ular yangi avlodga qulay va jozibador shaklda yetkazilmoqda. Ayniqsa, oila qadriyatlari, tarixiy-madaniy meros, milliy liboslar va diniyma'naviy an'analar raqamli kontentlar asosiy mavzusiga aylangan. Bu esa raqamli platformalarning ma'naviy tarbiya vositasi sifatidagi ijtimoiy rolini kuchaytiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida olib borilgan tadqiqotlar mintaqaviy xususiyatlarga ega bo'lgan raqamli kontentlar ham milliylikni saqlash va targ'ib qilishda samarali platforma bo'lib xizmat qilayotganini ko'rsatdi. Empirik ma'lumotlar yoshlar orasida milliy qadriyatlarni raqamli shaklda qabul qilish va qadrlash darajasi yuqori ekanini tasdiqladi.

Tadqiqotdan kelib chiqqan holda, quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

1. Milliy qadriyatlar va zamonaviylikni uyg'unlashtirish — raqamli media strategiyalarining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi zarur.
2. Ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa Instagram, Telegram va YouTube kabi platformalar, milliy o'zlikni raqamli makonda aks ettirishda asosiy vositaga aylangan.
3. Mahalliy kontent yaratuvchilar uchun milliylikni zamonaviy dizayn va interaktiv formatlarda ifodalash zarurati kuchaymoqda.

Raqamli media va milliy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlik ijtimoiy barqarorlik, madaniy merosni saqlash va ma'naviy yuksalishga xizmat qiluvchi dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tiborni talab qiladi. Bu sohada muntazam ilmiy izlanishlar

olib borish va natijalarni amaliyotga tatbiq etish bugungi kunning strategik vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli media vositalari milliy qadriyatlarni saqlash, targ'ib qilish va yoshlar ongiga singdirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali milliy madaniyat, urf-odatlar, tarixiy meros hamda ma'naviy qadriyatlar zamonaviy va jozibador shakllarda namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlarni zamonaviy media formatlari bilan uyg'unlashtirish yoshlarning qiziqishini oshiradi va milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, raqamli media muhitida milliy qadriyatlarni keng targ'ib qilish va sifatli milliy kontent yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraxmonova A. Milliy qadriyatlar va zamonaviylik: yangi media sharoitidagi muammolar // O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. – 2021. – B. 45–50. 2. Beknazarov M. Raqamli madaniyat va yoshlar ongida milliy o'zlikni shakllantirish // Falsafa va hayot. – 2022. – №4. – B. 34–39.
2. Hamraev Q. Axborotlashgan jamiyat va milliy o'zlik: nazariy tahlil // Jamiyat va boshqaruv. – 2020. – №1. – B. 21–26.
3. Odiljon, G. U. (2025). DEZINFORMATSIYA TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI. «ACTA NUUZ», 1(1.4), 76-78.
4. Mamarasulov A. Milliy qadriyatlar va yangi media: hamkorlik yoki qarama-qarshilik? // Ma'naviyat. – 2023. – №3. – B. 12–18.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934